



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariysi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariysi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariysi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 352 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirlari

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi

o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiysi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiysi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdu said o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar mакtablarining zarurati va ahamiyati .....	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobilovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri .....	90
Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna	
Oly ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati .....	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari .....	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda	
Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika .....	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi .....	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lif jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda	
motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish .....	132
F. Zaynabuddinov	
Razvitiye polikultural'noy kompetentnosti studentov v obrazovatel'noy srede vuz'a .....	135
Kireeva Elvina Flaritovna	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar .....	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning	
pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .....	144
Boybo'riyeva Saodat O'rakovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'naliishlari .....	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limi rivojlantirishning huquqiy asoslari .....	152
Ganiyeva Gulruk Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lif texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish .	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lakashunoslik materiallarining oliy ta'lif jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish .....	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli .....	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limi resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhriddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda	
interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini,	
ularning o'yin amplusasini hisobga olgan holda aniqlash usullari .....	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda	
IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'tasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya	
zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari .....	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'lidan foydalanishning	
pedagogik shart-sharoitlari .....	192
Rasulova Nozigul Abdovich qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish .....	196
Sharsofova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lif samaradorligini oshirishning	
pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida) .....	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish	
va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari .....	208
Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi	
Nofillologlarni (filolog bo'limganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....	214
Zarina Itolmasova	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
Hasanova Sumanbar Hamroqulovna	
Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов.....	222
Мамадалиева Зарина	
Abduqodir Shakuriyning ta'lif va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil .....	226
Ashurova Dilrabo Isroi qizi	
Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..	230
Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi	
Badiiy-estetik qbiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	233
G. S. Kaxarova	
Umumta'lif maktablarida informatika o'qitish asosida ta'lifni raqamlashtirishning metodologik asoslari...	236
Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich	
Shaxsda ma'nnaviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalgaligining ta'siri.....	240
Mirxoliqova Charos Xabibullayevna	
O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv .....	244
Najmetdinova Nargiza Sayfedinovna	
Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar .....	252
Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich	
Fitness-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashirish mashg'ulotlari uslubiyati .....	258
Shaxriddinova Laylo Nurxonova	
Raqamli ta'lif texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari .....	262
Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li	
Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar.....	268
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari .....	272
Xujanazarova Nozima Omonjonovna	
Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari .....	275
Axmedov Nodir Sadir o'g'li	
Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lif islohotlari kontekstida yondashuv .....	279
Begisbay Temirbayev	
Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni	
O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari .....	283
Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich	
Texnika oliy ta'lif muassasalari talabalariga umumiy fizika kursini o'qitishda virtual labaratoriyalarning ahamiyati .....	286
Abdurakibov Akmal Abdugaparovich	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining gaphirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi – "instruksional texnologiya" va sun'iy intellektga tayanib o'qitish metodologiyasi .....	290
Abrorxo'ja Muminxo'jayev Muksumxodjayevich	
Jaloliddin Rumiy fikrlarinining hozirgi yoshlarga ta'siri .....	296
Allayarov Doniyor Islam o'g'li	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish .....	298
Aygul Aralbayevna Urazimbetova	
Sud psixologik ekspertizasida travmatik tajriba (PTSD) fonida emotsiunal reaksiya va ko'rsatma sifati o'rtasidagi bog'liqlik.....	301
Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim dolzarbliklar .....	307
Idiyeva Gulchehra Izomovna	



Bikaryer oilalarda gender roller integratsiyasi jarayonidagi psixologik omillar.....	311
Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi	
Talabalar mustaqil ta'lmini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalarida foydalananish muammolari va yechimlari.....	315
Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna	
Boshlang'ich ta'lilda o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv ....	319
Laylo Baxtiyor qizi Axmedova	
1939-1945-yillarda O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligidagi paxtachilik va oziq-ovqat muammolari .....	323
Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarovich	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba oxiri jismoniy tayyorgarligi darajasi dinamikasi.....	328
Samadov Sardor Sodiqovich	
O'zbekiston umumta'lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) yondashuvining pedagogik va amaliy imkoniyatlari.....	335
Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi	
O'rta maktab 11-sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda turli metodlarning o'rni .....	340
Xamzayeva Ruxshona Abdusamadovna	
Umumta'lim maktablardagi ingliz tili o'quv darsliklari tahlili .....	344
Xiloldinova Zulayho	
Ingliz klassik adabiyoti orqali talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari.....	348
Zivotov Farruh Saodilla o'q'li	

# TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA VIRTUAL LABARATORIYALARNING AHAMIYATI

Abdurakibov Akmal Abdugaparovich

Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada texnika oliv ta'limga muassasalarida umumi fizika kursini o'qitishda virtual laboratoriylarning orni, ahamiyati, afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, virtual laboratoriylar dars sifatini oshiradi, talabalar uchun fizik jarayonlarni tasavvur qilish va ularning mohiyatini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada virtual laboratoriylarning samaradorligini oshiruvchi omillar va mavjud cheklov larga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** virtual laboratoriya, fizika ta'limi, texnika oliv ta'limga muassasalari, dars sifati, ta'limga texnologiyalari.

**Abstract:** This article analyzes the role, significance, advantages, and disadvantages of virtual laboratories in teaching the general physics course at technical higher education institutions. According to the findings, virtual laboratories enhance the quality of lessons and play a crucial role in helping students visualize physical processes and understand their essence deeply. The article also highlights factors that improve the efficiency of virtual laboratories as well as existing limitations.

**Key words:** virtual laboratory, physics education, technical higher education institutions, lesson quality, educational technologies.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются роль, значение, преимущества и недостатки виртуальных лабораторий при преподавании курса общей физики в технических вузах. Согласно результатам исследования, виртуальные лаборатории повышают качество занятий, способствуют формированию у студентов способности визуализировать физические процессы и глубоко понимать их сущность. В статье также уделено внимание факторам, повышающим эффективность виртуальных лабораторий, и существующим ограничениям.

**Ключевые слова:** виртуальная лаборатория, преподавание физики, технические вузы, качество обучения, образовательные технологии.

## KIRISH

Fizika – muhandislik ta'limga asos soluvchi, insonning dunyoqarashini shakllantiradigan fan. Fizika qonunlarini o'rganish insonni ilmiy tafakkur va mantiqiy fikr lashga o'rgatadi. Fizika sohasida chuqur fundamental bilimlarga ega bo'lmasdan turib, o'z sohasi bo'yicha yetarli bilimga ega, o'z-o'zini tarbiyalashga qodir yuqori malakali ilmiy va muhandislik kadrlarni tayyorlash mumkin emas.

Bugungi kunda yurtimizda aniq va tabiiy fanlarning rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ushbu boradagi islohotlari yaqqol misol bo'la oladi. Ta'limga davlatning iqtisodiy va siyosiy sohalardagi mustaqilligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har qanday rivojlangan davlatni kuzatadigan bo'lsak, undagi fan-texnika taraqqiyotining asosida ta'limga bo'lgan e'tibor turadi. Birgina Yaponiya davlatini olaylik: Ikkinchil jahon urushidan keyin u o'z byudjetining 40 % ga yaqinini ta'limga rivojlantirishga ajratdi va qisqa vaqt ichida dunyodagi sanoati rivojlangan mamlakatlardan biriga aylandi.

Shunday ekan, yurtimizning kelgusida rivojlangan davlatlar qatoridan o'rinni egallashi uchun biz yoshlar birlashib, kamarbasta bo'lib, yurtimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur. Bugungi kunda olib borilayotgan oqilona islohotlar doirasida yoshlarga ulkan imkoniyatlar yaratilgan. Bu imkoniyatlardan oqilona foydalangan yoshlarimiz yuksak marralarni zabit etishmoqda.

Turli xil ta'limgan grantlari, stipendiyalar, xalqaro stajirovkalar, o'qish bilan birga ishlash imkoniyati, qizlarga ajratilayotgan qo'shimcha grantlar, foizsiz ta'limgan kreditlari – bularning barchasi bugungi kunda yurtimizda ta'limga bo'lgan e'tiborning samarasidir.

Hozirgi kunda texnika oliv o'quv yurti talabalari uchun ham turli tanlovlardan, grantlarni, innovatsion dasturlar va xalqaro imkoniyatlar tobra kengayib bormoqda. Technolnovation, Startup Uzbekistan, Digital Nation, IT Park TechnoWays kabi dasturlar orqali talabalar o'z loyihalari bilan ishtirok etib, investitsiyalar va grantlarni qo'liga kirishlari mumkin. Texnika oliv ta'limgan muassasalari talabalariga sifatli ta'limgan berish, ularning mutaxassislik fanlarini puxta egallashlarini ta'minlash va ularni kasbga tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Talabalarning mutaxassislik fanlarini puxta egallab, kasbga tayyor bo'lishlarida fizika fanining o'rni beqiyosdir. Chunki muhandislik sohalaridagi mutaxassislik fanlarining asosida fizik bilimlar turadi. Shuning uchun yurtimizda fizika faniga bo'lgan e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Quyida fizika fanini bo'lajak muhandis kadrlarga sifatli yetkazib berish masalalari muhokama qilinadi.


## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kundan-kunga zamon rivojlanib borar ekan, axborot texnologiyalari barcha sohalarga kirib bormoqda. Shu bilan birga, ta'limgan sohasiga ham jadal kirib kelmoqda. Texnika oliv o'quv yurtlariда majburiy o'qitiladigan fanlardan biri fizika bo'lib, uni o'rganish talabalarini voqeqlikning fundamental asoslari haqidagi ilmiy g'oyalar bilan tanishtiradi hamda ular uchun kasbiy kurslarni o'zlashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Fizika kursiga raqamli texnologiyalarni joriy etishda fanning alohida o'rni mavjud. Fizika fani nazariy, eksperimental va didaktik tarkibiy qismalarni o'z ichiga oladi. Fizika fanining, asosan, ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlarida kompyuter texnologiyalardan keng miqyosda foydalanimoqda. Ma'ruza mashg'ulotlarida kompyuter texnologiyalari yordamida tayyorlangan rasm, audio va video ko'rinishidagi taqdimotlar darsning jozibadorligini yanada oshirib, talabalarning mavzu mohiyatini anglab yetishida hamda diqqatini jalb etishda katta yordam beradi. Laboratoriya mashg'ulotlarida ham kompyuter texnologiyalari yordamida tayyorlangan virtual laboratoriylar dars sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar virtual laboratoriyalarning termodinamika, kimyoiy reaksiyalar yoki elektr energiyasi kabi amalda kuzatib bo'lmaydigan hodisalarga oid laboratoriyalarga nisbatan afzalliliklarini ko'rsatgan. "Harakatlanuvchi elektronlarni ko'rsatadigan simulyatsiya qilingan elektr zanjirlarini o'rgangan universitet talabalarini fizika laboratoriyasida amalda bajarilganidan ko'ra ko'proq nazariy bilimlarga ega bo'lishdi". Xuddi shu xulosalar talabalar yorug'lik nurlarini aks ettiruvchi virtual optik materiallardan foydalanganda ham qayd etilgan. Ular jismoniy materiallardan foydalangan talabalarga qaraganda ancha yaxshi natijalarni ko'rsatganlar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Virtual laboratoriya ishlarini bajarishda talabalar fizik hodisalarni modellashtirish ko'nikmalarini samarali rivojlantiradilar, haqiqiy laboratoriya ishlarini bajarish orqali esa ular asbob-uskunalar bilan ishlashni, eksperimental qurilmalarni yaratishni va fizik miqdorlarni o'chashni o'rganadilar.




1-rasm



Virtual laboratoriya ishlari intellektual eksperimental ko'nikmalarni shakllantirishning samarali vositasidir, biroq ulardan haqiqiy jismoniy eksperimentsiz mashg'ulotlarda yagona mumkin bo'lgan vosita sifatida foydalanish mumkin emas. "Haqiqiy laboratoriya ishlari o'rniqa virtual laboratoriya ishlardan foydalanish qat'iyan man etiladi, virtual ish faqat real vaziyatdagi harakatlarni mashq qilish uchun xizmat qiladi". Texnika oliy o'quv yurtlari talabalariga umumiy fizikani o'qitishda ham biz virtual laboratoriya nisbatan aynan shu nuqtai nazarga amal qilamiz. Bundan tashqari, ular qisman jihozlarning yetishmasligi muammolarini hal qiladi yoki to'liq miqyosli fizik tajribaga qo'shimcha sifatida qo'llaniladi.

Laboratoriya tajribalari talabalarni haqiqiy fizik hodisalar, jarayonlar va tizimlar bilan tanishtiradi. Laboratoriya amaliy kursida talabalar o'Ichov asboblari, o'Ichovlarni olish usullari va tajriba natijalarini qayta ishlash usullari bilan tanishadilar. Ushbu jarayonda talabalarning bilim faolligi oshadi, bu esa haqiqiy tajribada olingan natijalarni tanqidiy tahlil qilish bilan bog'liq. To'liq miqyosli laboratoriya ishlarini olib borish o'quv jarayonini ilmiy metod kontekstida tashkil etishga imkon beradi. Bu jarayonda eksperiment nazariy g'oyalarni sinab ko'rish vositasи va haqiqatning yangi faktlari manbai sifatida hal qiluvchi rol o'yynaydi.

Zamonaviy virtual laboratoriya ishi – bu simulyatsiya qilingan tizimlar, hodisalar va jarayonlarni vizualizatsiya qilish imkonini beruvchi dinamik 3D grafikalardan foydalangan holda interfeysda amalga oshirilgan fizik eksperimentning interaktiv simulyatsiyasidir. Interaktiv boshqaruvi elementlarining mavjudligi tizim parametrlarini va monitoring jarayonlarini o'zgartirishga imkon beradi (masalan, virtual vaqt tushunchasidan foydalangan holda tezlashtirish yoki sekinlashtirish). Interfeysda virtual qurilmalar va o'rganilayotgan tizimlarning strukturaviy elementlarining mavjudligi eksperimental qurilmalarni yig'ishni interaktiv tarzda simulyatsiya qilish imkonini beradi. Shuningdek, virtual taymerlar, o'Ichagichlar, ampermetrlar, voltmetrlar va boshqa o'Ichov vositalarining mavjudligi o'Ichov jarayonlarini interaktiv tarzda simulyatsiya qilish imkonini beradi. Virtual laboratoriya ishlarining grafik vositalari modellashtirilgan tizimlar va jarayonlarning dinamik vizual tasvirlarini yaratishga imkon beradi. Ba'zi hollarda bunday tasvirlar haqiqatda "kuzatib bo'lmaydigan" deb tasniflanadi yoki kuza-tish uchun ancha murakkab va qimmat uskunalar talab qilinadi. Masalan, chiziqlar tasvirlari va maydonlarning vektor xarakteristikalari (gravitatsion, elektr, magnit), elektron "bulutlar", difraktsiyalovchi zarralarning statistik taqsimotlari (fotonlar yoki elektronlar) va boshqalar.



2-rasm

Albatta, virtual laboratoriyalardan qo'shimcha didaktik vosita sifatida foydalanish fizika fanlarini, akademik kontseptsiyalarni yanada fundamental idrok etish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ammo tabiiy laboratoriya tajribasini voqelik haqidagi model-nazariy g'oyalaramizning haqiqatini eksperimental tekshirish bilan bog'lash mumkin bo'lsa, virtual tajribalarning asosini aynan shunday g'oyalarga asoslangan matematik modellar tashkil etadi. Shu sababli, haqiqat simulyatorlari bilan virtual eksperimentlar o'tkazish talabalarga natijalarni bilish tsiklining ilmiy usuli kontekstida tahlil qilishga imkon bermaydi. Shuning uchun virtual laboratoriya ishining o'zi bilan bir qatorda uni amaliy qo'llashning eng muhim elementi "virtual tajriba" – bu haqiqatning matematik modeli bilan ishslash" kontekstida tuzilgan ko'rsatma-ta'rifdir.

Shu o'rinda, an'anaviy laboratoriya ishi bilan virtual laboratoriya ishini taqqoslasmiz. Virtual laboratoriya ishi bir nechta afzallikkarga ega.

*Birinchidan*, qimmat uskunalar va xavfli radioaktiv materiallarni sotib olishning hojati yo'q. Masalan, kvant, atom yoki yadroviy fizikadagi laboratoriya ishlari uchun maxsus jihozlangan laboratoriylar talab etiladi. Virtual laboratoriya ishi esa fotoelektrik effekt, Rezerfordning alfa zarralarini tarqalish tajribasi, kristall panjarasini elektron tarqalish orqali aniqlash, gaz qonuniyatlarini o'rganish, yadroviy reaktorlar va boshqalar kabi hodisalarni o'rganishga imkon beradi.

*Ikkinchidan*, laboratoriyyada an'anaviy usulda bajarish mushkul bo'lgan jarayonlarni taqlid qilish mumkin. Xususan, molekulyar fizika va termodinamikadagi klassik laboratoriya ishlarining aksariyati yopiq tizimlar bo'lib, ularning chiqishida ma'lum miqdordagi elektr kattaliklari o'chanadi, shundan kerakli qiymatlar elektrodinamika va termodinamika tenglamalari yordamida hisoblab chiqiladi. Fizikaning ushbu sohalarida virtual laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida talabalar o'rganilayotgan fizik-kimyoiy hodisalar va real tajribada kuzatib bo'lmaydigan jarayonlarning dinamik tasvirlarini kuzatish uchun animations modellardan foydalanishlari mumkin. Shu bilan birga, eksperiment bilan bir qatorda fizik kattaliklarning mos keladigan grafik tuzilishini kuzatishlari mumkin.

*Uchinchidan*, virtual laboratoriya ishi an'anaviy laboratoriya ishlariga qaraganda fizikaviy yoki kimyoiy jarayonlarni ko'proq vizual tarzda ifodalashi mumkin. Masalan, elektr tokini hosil qiladigan zaryadlangan zarralarning harakati kabi fizik jarayonlarni batafsil va aniqroq o'rganish mumkin bo'ladi. Shuningdek, soniyalarning ulkan kichik qismlarida yoki bir necha yil davom etadigan jarayonlarga ham kirish mumkin. Masalan, markaziy jismning tortishish maydonidagi sayyoralar harakatini o'rganish. Virtual laboratoriyalarning an'anaviy laboratoriyalardan yana bir ustunligi – bu xavfsizlikdir. Xususan, yuqori kuchlanishli yoki xavfli kimyoiy moddalar bilan ishlash talab etiladigan holatlarda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biroq, virtual laboratoriyalarning ham kamchiliklari bor. Eng asosiysi – bu o'rganish obyekti, asboblar va jihozlar bilan bevosita aloqaning yo'qligi. Texnik obyektni faqat kompyuter ekranida ko'rgan mutaxassisni to'liq tayyorlash mumkin emas. Shuning uchun eng oqilona yechim – an'anaviy va virtual laboratoriya ishlarini o'quv jarayoniga ularning afzallikkleri hamda kamchiliklarini inobatga olgan holda birgalikda joriy etishdir.

## XULOSA

Shunday qilib, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga umumiyligi kursini o'qitishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati juda katta. Talabalarning ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini laboratoriya mashg'ulotlarida qo'llash orqali ular bu bilimlarni mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar. Bu o'rinda virtual laboratoriyalarning ahamiyati yuqorida ta'kidlanganidek, xavfsiz, arzon va kam vaqt talab etilishi, ya'ni jarayonni tezlashtirish imkonini berishidadir. Shuningdek, an'anaviy usulda bajarilganda ko'rib yoki kuzatib bo'lmaydigan jarayonlarni (elektronlarning harakati, radioaktiv moddalarning o'zaro ta'siri va boshqalar) virtual laboratoriylar yordamida vizual tarzda kuzatish imkoniyati talabalarda tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirib, fizik mohiyatlarni chuqurroq anglashlariga katta yordam beradi. Bu esa olingan fizik bilimlarning talabalarning kelgusida muhandislik sohalarida ishlashida albatta foydali bo'lishini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Машиньян А. А., Кочергина Н. В., Бирюкова О. В., Бабаев Д. Д. Виртуальные лабораторные работы по физике в техническом вузе. Перспективы науки и образования: Международный электронный научный журнал. ISSN 2307-2334 (онлайн). – 2022.
2. Баранов А. В. Виртуальные лаборатории физики как инструмент цифровой дидактики. ФГБОУ ВО "Новосибирский государственный технический университет", Россия, Новосибирск. Цифровая дидактика. УДК [378.016:53]:[378.147.88:004].
3. Yo'ldosheva G. "Fizika fanini o'qitishda dasturiy vositalar va virtual laboratoriylar". Academic Research in Educational Sciences. – 2021.
4. Дмитриев В. Л. "Облачные технологии и игрофикация как основа научно-образовательной платформы для организации электронного обучения" / В. Л. Дмитриев, Р. Х. Каримов // Профессиональное образование в России и за рубежом. – 2016. – № 2 (22). – С. 131–135.
5. Губский Е. Г. "Виртуальный лабораторный комплекс по физике. Разделы механика и термодинамика" // Энергобезопасность и энергосбережение. – 2009. – № 1. – С. 41–43.
6. Maxmudova X. M. diss. "Umumiyligi fizika kursining 'Optika' bo'limidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishga axborot texnologiyalarini qo'llash". Toshkent. – 2000.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.